

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

**UMUM O’RTA TALIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ
TAJRIBASIDAN FOYDALANISH**

Abdulkhamidov Abrorbek A’zamxon o’g’li

5A230201-Management (Education Management)

**National Research Institute for Professional Development and Training of Teachers in
New Methods named after Abdulla Avloni**

Phone: +998901389797

Email: abrорabdulhamidov@outlook.com

Annotatsiya: Maqolada ta’lim sohasida dunyoning yetakchi davlatlaridan bo’lgan Yaponiya va AQSH kabi yetuk xorijiy ta’lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta’lim dasturlari haqida qisqacha tahlillar olib borilgan.

Kalit so’zlar: Yaponiya, AQSH, texnologiya, o’rta maktab, kunduzgi, sirtqi, kechgi, sinov topshiriqlari, quyi maktablar, Rossiya, Angliya

Ta’limdagi eng ko’p erishilgan katta yutuqlar albatta tirishqoqlik bilan harakat qiladigan insonlar tarafida bo’ladi. Albatta qattiq harakat, shijoat tufayli bugungi kunda yaxshi natijaga erishish mumkin.

Takidlاب o’tish kerak bugungi kunda yurtimizda aniq fanlar ya’ni matematika, kimyo va fizika kabi darslarining atiga 10 foizigina amaliy mashg’ulotga ajratilgan. Rivojlantirilgan davlatlarda masalan Yaponiyada bu ko`rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi. Shu bois xalq ta’limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga o’quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashgu’lotlar ko`lamini oshirish vazifasini o’z oldiga yechilishi kerak bo’lgan masala qilib qo’ydi. Bugungi kunda har qanday rivojlangan davlatlar qatoriga kirmoqchi bo’lgan xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, dastlab uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e’tiboriga bu yo’ldagi say harakatlariga qarab belgilanadi.

Keling endi rivojlangan davlatlarda ta’lim sifati va tajribalarini ko’rib tahlil qilamiz.

Yaponiya ta’lim tizimi

Yaponiya ta’limida bitta o’quvchiga qarata “iqtidorli o’quvchi” tushunchasi yo`q. chunki har bir o’quvchi alohida iqtidorga ega hisoblanadi. Ta’lim sohasida yetakchi mamlakatlar ichida Yaponiya ta’limi o’ziga xos yo’nalishi alohida o’ringa ega. Shu jumladan, Yaponiya ta’lim tizimining ketma-ketligi quyidagicha:

- maktabgacha ta’lim ,
- boshlang’ich maktab ,
- kichik o’rta maktab,
- yuqori o’rta maktab,

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

- oiliy ta’lim tizimlariga kiruvchi oliy o’quv yurtlari.

Boshlang’ich maktabda o’qituvchilar o’quvchilarni tanqidga chidamlilikkao’rgatadi. Masalan o’z xulqining yomon jihatlarini, bilim olishdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o’rgatiladi. Demak o’qituvchi faqat ta’lim berish bilangina cheklanib qolmaydi balki bolaning har tomonlama rivojlanishiga sababchi inson bo’ladi. Eng e’tiborlisi Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o’qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo’lgan yagona davlat hisoblanadi.

Majburiy ta’lim muhiti.

Ta’limning bu bosqichi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo’lgan bolalarni o’z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy tomondan yordam beriladi. Yuqori ya’ni o’rta maktab 10-11-12-sinflarni o’z ichiga oladi, bunday maktablarning hattoki kunduzgi, sirtqi, kechki bo’limlari ham mavjud. Yuqori bosqichga o’tish uchun o’quvchilar o’rta maktablarda butun o’quv jarayoni davomida 80 ta sinov topshiriqlarini topshirishadi.

Yaponiya Universitetlariga yuqori va o’rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o’quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish jarayoni 2 bosqichga bo’linadi:

1-bosqich turar joyda o’tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo’yicha test sinovlaridan o’tkaziladi.yana bir e’tiborlisi shundaki Yaponiyada oliy ta’lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta’limi bilan uzviy bog’liq deb belgilangan.

Amerika Qo’shma Shtatlari ta’lim tizimi:

AQSH da o’rta ta’lim 12 yil bo’lib,

- boshlang’ich
➤ o’rta
➤ quyi maktablarga bo’linadi.

Ta’lim darhohlarining ko’p qismi davlat maktablaridan iborat bo’lib va bu maktablarda o’quvchilarning 88 foizi o’qiydi.

Mamlakatlarda ta’lim maskanlari O’zbekistondagi kani raqamlarga ega emas, lekin ular hududlar nomi bo’yicha yoki mashhur kishilarning ismlari bilan ataladi. Odatda har bir sinf xonasida televizor va kompyuter bor.

Boshlang’ich sinflarda matematik bilimlarning darajasi boshqa xorijiy rivojlangan davlatlar xususan Rossiya va Angliya maktablari darajasiga qaraganda biroz yengilroq. Ko’paytirish jadvali AQSH maktablarida 3-sinfdan boshlanadi.

Yuqorida ikkita xorijiy mamlakatlarda maktablar tizimini qay darajada ekanligini ko’rib chiqdik.

Xulosa: Xorijiy mamlakatlarning tajribasiga tayanib O’zbekistonda ham ta’lim tizimda sezilarli darajada o’zgarishlar bo’lyapdi desak xato emas. Ammo ta’lim tizimida ham o’zbek modulini butun dunyoga ko’rsatsak masalining yechimi bo’lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
2. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, , Boshlang'ich ta'lim“ jurnali. 2019- yil. 12- son.
3. R.Ilashova. Amerika maktablarida.- , , Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2019-yil
4. Ravshanov J. F. The importance of working with terms and concepts in teaching history. - 2020.